
Xumdon mahallasiga yangi suv nasosi o'rnatildi

So'nggi yillarda mamlakatimizda suvdan oqilona foydalanish, uning sifati va xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, suv iste'molini hisobga olishning zamonaviy innovatsion tizimlarini joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ko'rilgan holda suvdan foydalanish, shu jumladan, suv ta'minoti va suv chiqarish sohasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Suvdan foydalanishni samarali tartibga solishni ta'minlash uchun suv resurslarini boshqarish bo'yicha yangi tuzilmalar yaratilgan, suv ta'minoti va suv chiqarish sohasiga xususiy sektorni jalb qilish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda.



Qo'shtepa tumani "Xumdon" MFY Baxt ko'chasida joylashgan suv nasosining nosoz holga kelib qolganligi ko'p qavatli uylarda yashovchi fuqarolarning norozichiligiga sabab bo'layotgan edi.

Qo'shtepa tumani hokimligi tashabbusi bilan ushbu hududga yangi nasos keltildi.^{2/3} "Suvoqava" DUK Qo'shtepa tumani filiali mas'ul xodimlari tomonidan yangi nasos o'rnatildi. Yuzaga kelgan muammolar to'liq bartaraf etilib, hudud fuqarolarining toza

ichimlik suviga bo'lgan ehtiyojlari qondirildi.

